

TURDIMIRZAYEV Elyorbek,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: turdimirzayevelyorbek@gmail.com

TEMURIYLAR DAVRIDA IQTISODIY HAYOT

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В ЭПОХУ ТИМУРИДОВ

ECONOMIC LIFE DURING THE TIMURID ERA

Annotatsiya. Bu tadqiqotda temuriylar davlatining ilk yillaridan inqirozga uchrab tarix sahnasidan tushgunigacha bo'lgan davrdagi iqtisodiy hayotning dehqonchilik, sug'orish tizimi, chorvachilik kabi sahaları tilga olinadi. Mazkur sohalarning rivojlanishi, bu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar va yangiliklar haqida so'z boradi. Temuriylar davlatining markaziy shaharlarida dehqonchilik va chorvachilikni qaysi sohalari yaxshi rivojlandi va qaysi sohasida o'sish bo'lmaganligini ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, temuriylar, Samarqand, Hirot, Buxoro, Amir Temur, Shohrux.

Аннотация. В данном исследовании такие области экономической жизни, как сельское хозяйство, ирригационная система и скотоводство, упоминаются в период от первых лет существования государства Тимуридов до его распада со сцены истории. Обсуждается развитие этих направлений, реформы и инновации, реализуемые в этом направлении. В центральных городах государства Тимуридов будет учитываться, какие отрасли сельского хозяйства и животноводства развиты хорошо, а в каких нет роста.

Ключевые слова: Экономика, Тимуриды, Самарканд, Герат, Бухара, Амир Темур, Шахрух.

Abstract. In this research, fields of economic life such as agriculture, irrigation system, and cattle breeding are mentioned in the period from the first years of the Timurid state to its collapse from the stage of history. The development of these areas, reforms and innovations implemented in this direction are discussed. In the central cities of the Timurid state, which sectors of agriculture and animal husbandry have developed well and in which sectors there has been no growth will be considered.

Key words: Economy, Timurids, Samarkand, Herat, Bukhara, Amir Temur, Shahrukh.

KIRISH

O'rta asrlarda davlat iqtisodiyotining asosiy bo'laklaridan biri hisoblangan dehqonchilik sohasiga Amir Temur va temuriylar davrida juda katta e'tibor berilgan. Xususan, Amir Temur bu sohaning rivoji uchun katta ishlarni amalga oshirdi. O'z davlati tarkibiga kirgan hududlarda dehqonchilik ishlarini rivojlantirish uchun davrining imkoniyatlardan foydalandi. U o'z davlatining hududida ishlash mumkin bo'lgan hech bir yerni bo'sh qoldirishga ko'ngli rozi emas edi [9:124]. Buni manbalar va bu xususida qilingan tadqiqodlar tasdiqlaydi. Sharofiddin Ali Yazdiy Amir Temur haqida "Sohibqiron tinimsiz harakatda bo'lganligi uchun bir joyda hech turmas edi. Undan har bir viloyatda shu qadar ko'p dehqonchilik maydonlari qoldiki, sanab ado qilib bo'lmaydi" [21:383]deb aytadi.

ASOSIY QISM

Qadimdan Turon hududi yerlari serunum, suvlar mo'l hudud bo'lgan. Buni ko'plab arab geograflari ham tasdiqlashgan. Ana shu geograflardan biri Fazlulloh al-Umariy Turon haqida "bu mamlakatda yorma, bug'doy, arpa, no'xat, guruch, makkajo'xori va donli o'simliklar yetishtiriladi. Faqat lovyo yo'q. Narxlari juda arzon. Narxi rosa ko'tarilsa Misr va Suriyadagi eng past narxdan ham kamroq bo'ladi. Mevalari ham turli-tumandir. Uzun, anjir, anor, olma, olxo'ri, shaftoli, behi, o'rik, tut, nok, qovun va tarvuz kabi

mevalar bor. Ayniqsa, qovunlari juda sifatlidir va qayerga borsa ham sifatini yo'qotmaydi. Mazasi jihatdan Xorazm qovunlari biroz ustun ko'rinsada, eng yaxshi qovunlar Buxoro va Samarqandda yetishtiriladi. Sabzavotlardan bodring, qovoq, sabzi, karam, baqlajon, suv qovog'i va boshqalar, gullardan rayxon, gul, nargiz, nilufar, mirt va oz bo'lsada yetishtiriladi. Apelsin, mandarin, limon, banan, shakar qamish, koloka va gibiskus yo'qdir. O'zlarini o'lkalaridan yetishtirilmaydigan mevalarni boshqa mamlakatlardan olib keladilar [3:128].

Temuriylardavrida Samarqand, Kesh, Buxoro, Xorazm, Huroson hududlari va Ozarbijonda katta dehqonchilik maydonlari barpo etildi. Bu davrda Samarqadda juda ko'plab bog' va tokzorlar barpo etilgan. Buni Ispaniyalik mashhur sayyoh Klavixo quyidagicha tavsiflaydi: "butun shahar atrofi ba'zi joylari bir yarim ba'zan ikki liga (Liga – britan va amerikan masofa o'lchov birligi. 1 liga 4828,032 metr) masofaga cho'zilgan bog'lar va tokzorlar bilan o'ralgan. Bog' va tokzorlar shu qadar ko'p ediki, kirib kelayotganingizda shahar bamisoli baland daraxtlardan hosil bo'lgan o'rmon o'rtasida joylashganday ko'rinadi" [13:198].

Bu davrda bog'lar oralig'iga qovun va paxta ekilgan. Ayniqsa Samarqand qovuni serhosil va mazali bo'lgan. Hatto qishloqlarda qovun ko'p bo'lganligidan quritib, qovun qoqi qilib kelasi yilgacha saqlaganlar [13:198]. Mazkur davrda bog'lar Samarqand shahrining ichki qismida barpo qilingan [8:378].

Klavixoning guvohligiga ko'ra, Samarqand va uning atrofidagi yerlar hayratomuz darajada mo'l-ko'l va boy edi. Meva-chevalar juda ko'p edi. Bu davrda arpaning bahosi yarim real edi. Non esa tekin desa ham bo'lardi, guruch ham hammayoqni bosib ketgan edi [13:179]. Bu ma'lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, bu vaqtda nonni tayyorlash uchun kerak bo'ladigan asosiy mahsulot bug'doy juda serob bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur Samarqand va uning atrofiga juda ko'plab bog'lar qurdirgan. Bu bog'lar mevali daraxtlar bilan to'la edi. U biror tomonga harbiy yurishga otlansa bu bog'lar

bo'shab qolardi va shahar aholisi mana shu bog'lar tomon yo'l olardi. Chunki bu bog'lardan afzal dam olib, rohatlanishga qulay boshqa joy yo'q edi. Bog'larning mevalari shirin va mazali bo'lib hammaga barobar tekin edi [6:411]. Amir Temurning bir odati bo'lib, u barpo ettirgan bog'larining ichiga ko'shk yoki qasr qurdirar edi. Uning yana bir oqilona odatlaridan biri, u biror mamlakatga yurish qilishdan to'rt yoki besh yil oldin, o'sha mamlakat bilan chegaradosh bo'lgan hududlarida dehqonchilik va ekin-tikin ishlarini yo'lga qo'ygan. Bundan murod harbiy yurish vaqtida qo'shinning zahiralari to'ldirish bo'lganligi ko'rinib turibdi. Bunga misol tariqasida 1398-yil 19-fevral kuni Sohobqiron shahzoda Muhammad Sultonga qirq ming kishilik qo'shin berib, Mo'g'iliston chegaralariga borishni va Ashpara degan joyda bir qal'a qurishni buyurdi. Bu yerda dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lib, ekin ekishni talab qildi [21:276]. Bu bilan Amir Temur Xitoyga harbiy yurishni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rgan edi. Bundan tashqari Temur 1404-yil Samarqanddan Ashparagacha bo'lgan hududlarda savdo-sotiqni to'xtatib, dehqonchilik va sug'orish ishlari bilan mashg'ul bo'lishni buyuradi. Har bir kishi ekin ekishda yaroqli qurollarini o'zi tayyorlashga farmon beradi. Bu ishga shunchalik qattiq ahamiyat beradiki, Ibn Arabshohning tabiri bilan aytganda "insonlar garchi namozlarini tark etishga majbur bo'lsalar ham dehqonchilikni aslo tark etmasliklari kerak edi" [6:325].

Temuriylar davrida dehqonchilik rivojlangan joylardan yana biri Buxoro vohasidir. Bu davrda qishloq xo'jaligida g'allakorlik, sabzavotchilik, polizchilik va bog'dorchilikka ahamiyat berilgan [5:165]. Klavixo ham Buxoroda g'alla ko'p bo'lganini qayd etib o'tgan [13:209]. Qishloqlarda tut daraxtidan ipak qurtini boqishda foydalanilgan. Badriddin Kashmiriyni yozishicha, Buxoroning Jo'ybor mavzesida limon, xurmo va shamshod daraxti o'sgan [5:165]. Sultoniyalik rohib Johannesning ma'lumotlariga ko'ra Buxoroda juda ko'p miqdorda oltin qazib olingan [14:61].

Yana bu davrda Kesh shahri ham dehqonchilik rivojlangan shaharlardan biri edi. Kesh shahrida Aholi zich yashaydigan qishloqlar ko'm-ko'k o'tloqzorlardan iborat suvga serob bu hudud yozda juda chiroyli manzara kasb etadi. Sug'oriladigan dalalarga bug'doy, paxta, qovuntarvuz ekilgan, hammayoqda tokzorlar va mevali bog'lar bor edi [13:146].

Temuriylar davlatining ikkinchi poytaxti Hirot shahri ham dehqonchilikrivojlangan shaharlardan biridir. Xususan, Hirot shahrini o'ziga poytaxt qilgan temuriylarning Sohibqirondan keyingi eng buyuk hukumdori Shohrux mirzo bu hududlarda dehqonchilik rivojiga katta hissa qo'shdi. Shohrux mirzoning amaldorlaridan biri bo'lgan Jaloliddin Muhammad al-Qoiniy unga atab yozgan "Nasoih Shohruxiy" deb nomlangan "Siyosatnoma" janridagi asarining dehqonlar tabaqasi, yani ahli ziroat haqidagi bo'limida musulmon hukumdorning dehqonlarga nisbatan adolatini namoyon etishi lozim bo'lgan yo'llarni batafsil bayon etadi. Al-Qoiniy adolat doirasiga ishora qilib, u "hukumdorlikni saqlash – adolat va gullab-yashnayotgan xazinaga asoslanadi. Xazinani adolat orqali gullab-yashnagan tobe aholi tomonidan to'ldiriladi" deya ta'kidlaydi [11:198a]. U dehqonlarni "hukumdorning xazinasi va qo'shini" (hazina va sipohi podishoh) deb atagan. Al-Qoiniy dehqonlardan soliq undirish muammosiga ham alohida e'tibor qaratadi. Asosiy yer solig'ini yig'im-terim oldidan to'lashni talab qilish, yil davomida o'zboshimchalik bilan soliq undiruvchilarni jo'natish kabi ishlarni qattiq qoralaydi [11:200 b-201 a; 12:109]. U "Qalan" (Qalan – mo'g'illar davrida dehqonchilik mahsulotlaridan 1/10 miqdorida olinadigan soliq turining nomi) deb ataladigan noshar'iy soliqlarni o'rnatishni qattiq tanqid qiladi. Qalan mo'g'illar tomonidan qopchur (Qobchur – mo'g'illar davrida 1/100 nisbat bilan hayvonlardan olinadigan soliq turining nomi) bilan birgalikda o'rnatilgan soliq bo'lib, odatda, mo'g'ullar hukumronligi bilan bog'liq bo'lgan zo'rlik bilan tortib olinadigan soliq ramzi sifatida ishlatilgan. Al-Qoiniy aytishicha,

musulmon hukumdor qishloq xo'jaligidagi barcha mana shu kabi to'lovlarni bekor qilsin. Chunki, ular islom huquqi nuqtayi nazaridan "bid'at"ni ifodalaydi [12:109]. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, temuriylar davrining dastlabki davrlarida mo'g'ullar tomonidan olib kirilgan "qalan" solig'i dehqonlardan yig'ib olingan. Yana ba'zan mamlakat hududidagi dehqonlardan o'zboshimchalik bilan soliq yig'ish ishlari ham bo'lib turgan. Shundan kelib chiqqan holda Al-Qoiniy Shohrux mirzoga mana shunday nasihatda bo'lganligini anglashimiz mumkin.

Temuriylar davrida sug'orish tizimi

Yangi dehqonchilik maydonlarini ochish maqsadida Amir Temur mintaqaning bir qancha yerlarida kanallar ochtirgan. Amir Temur 1381-yil Hurosonni zabt etgandan so'ng, bu yerdagi ziroatchilikni rivojlantirish uchun katta beklarga Murg'ob suvidan kanallar ochtirishni buyurdi. Bu kanallarga ochtirganlarni nomi berildi. Hofizi Abru bulardan yigirmatasini nomini keltirgan [18:144; 10:117]. Ular quyidagilar: Dilkusho, Ganjirovan, Darband, Ganchxona, Umar Tobon, Oqbug'o, Qutlug' Xotun, Shayx Abu Said, Shayx Ali, Davlatshoh Jondor, Gulbog'on, Qutlug' Temur, Hasan Jondor, Amir Oloviddin, Sanjadak, Havruz, Navbatxon, Menglixo'ja, Kepakchi, Ali Malik kanallaridir. Bu kanallardan biriga "Qutlug' xotun" nomini bergan. U Amir Temurning 1383-yilda vafot etgan singlisi Qutlug' Tarkan Og'odir [2:192; 9:124].

Amir Temur davrida Ozarbijonda Araks daryosining Jankshi Ko'shki deyilgan joydan Sorhapil degan joygacha uzunligi 10 farsax (60-70 km) bo'lgan kemalar ham suza oladigan bir dona kanal qaziladi. Buning natijasida juda ko'p yerlarda sug'orma dehqonchilik qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Uni Barlos kanali deb nomlaydilar[21:384; 4:229; 9:125]. Bundan tashqari yana Amir Temurning buyrug'i bilan Araks daryosidan Baylakon shahrini sug'orish uchun uzunligi olti farsax (35-40 km) eni o'n besh gaz bo'lgan kanal qazildi. Bu kanalni qazish ishi bir oy davom etdi [21:420; 20:40;

4:229; 2:192; 9:125]. Sohibqiron Amir Temur Qobul Juyi Nav degan joyda Juyi Mohigir nomli uzunligi besh farsax keladigan bir dona kanal qazdirgan. Bu kanal bilan sug'orilmayotgan va foydalanilmayotgan bir qism yerlar dehqonchilik uchun topshirildi [21:320; 2:192; 9:125].

Sug'orish tizimini yo'lga qo'yib uni rivojlantirish Amir Temurning vorisi Shohrux mirzo davrida ham davom etdi. U 812/1410-yil butun Hurosonda qurilish ishlarini yo'lga qo'yishga farmon chiqardi. Mo'gul bosqinidan so'ng haroba holga tushub qolgan Murg'ob daryosidan keladigan Marv suvi kanali to'lib, yaroqsiz holga tushib qolgan edi. Shohrux tomonidan "qaytadan ariq qazilsin va to'g'on bog'lansin" degan farmon berildi. Bu ishga Aloviddin Aliko'kaltosh, amir Muso va amir Ali Shaqoniylar mas'ul qilib qo'yildi. Ular qisqa vaqtda bu ishni yakunladilar. Birinchi yil bu yerda besh yuz juft ho'kiz dehqonchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Xalq esa bu yerga ko'chib kela boshlaydi. Bu qurilgan kanalning uzunligi o'n ikki farsax, kengligi yigirma gaz, chuqurligi besh gazdan kam emas edi [1:172; 9:125; 17:526].

Shohruxning Harirud daryosi bo'yida qurilgan sug'orish kanallarini yangittan ta'mirlash va Murg'ob bo'yida yangi kanallar qurishni buyuradi. Dehqonchilik va boshqa faoliyatlarda Hirotidagi Dilkusho kanali katta ahamiyatga egadir. Bu kanallar bilan birga Shohruxning amirlaridan amir Feruzshoh va Aliko'kaltosh Injili va Hiyobon kanallarini ta'mirlab foydalanishga topshirgan [18:145].

Samarqand atrofida Sug'di Kalon hududini sug'oradigan "Mirzo" arig'ini mahalliy aholining so'zlariga ko'ra Mirzo Ulug'bek tomonidan ochtirilgan [9:126]. Bundan tashqari Sulton Abu Saidning vaziri Ho'ja Qutbiddin Simnoniy 873/1468-yil Hirotning shimoli sharqida uzunligi to'rt farsax bo'lgan kanal qazdiradi. Buning natijasida ko'p joylar dehqonchilik qilishga yaroqli holga keltiriladi [9:126].

Temuriylar davrida chorvachilik

Chorvachilik jamiyatning asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun yaratgan tomonidan taqdim etilgan ne'matlardan biridir. Chorvachilik faoliyati

o'rta asrlarda ko'pincha tabiiy sharoitlardan kelib chiqib rivojlangan. Bu faoliyat rivojlanishiga suv manbalari ko'p bo'lgan Turon mintaqasi juda mos bo'lgan. Turon mintaqasida hayvonlardan ot, xachir, eshak, o'rkachli tuya, qo'y, sigir bo'lgan. Xachir va eshak kamroq. Eng ko'p uchraydigani qo'ydir. Xususan, Olmaliq atrofida juda ko'pdir. Chunki, iqlimi juda yumshoqdir va qo'yning ko'payishiga ancha qulaydir [3:128]. Amir Temur va temuriylar davrida chorvachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Turonda qo'ychilik, asosan qorako'l va dumbali qo'y nasllari yetishtirish juda rivojlangan. Aholining yarim ko'chmanchi qismi ko'p sonli qo'y podalariga egalik qilgan. O'troq aholi ham qo'y boqqan [16:117]. Samarqandda juda zottor qo'ylar yetishtirilgan. Samarqand qo'ylari katta va serdumbali edi. Dumbasini og'irligi 8-10 kilogramgacha kelardi. Samarqandda qo'ylar shunchalik ko'p yetishtirish yo'lga qo'yilganki, Klavixo ularning bir juftining narxini bir dukat ekanligini qayd qilib o'tgan [13:199]. Klavixo Samarqandda parranda go'shti ham juda mo'l bo'lganligini aytib o'tgan [13:199]. Demak xulosa qilishimiz mumkinki, bu davrda parranda yetishtirishga ham alohida ahamiyat berilgan. Sultoniyalik rohib Johannes Amir Temurning chorvalari ko'pligiga ishora qilib, "tuya va boshqa hayvonlarining sanog'i yo'q [14:61]" deb aytadi. Bundan ko'rinib turibdiki temuriylarda tuyachilik ham yaxshigina rivojlangan.

Xo'jalik hayotida yilqichilikka muhim o'rin ajratilgan. Turli nasldagi otlar, jumladan "o'zbek", "turkman", "arab" va boshqalar ko'paytirilgan, yorg'a otlar juda qadrlangan. Bu yerlarda otlar chidamliligi bilan mashhurdir [16:117]. O'rta asr arab geografi Shihobiddin ibn Fazlulloh al-Umariy Mavarounnahr otlari "yeldek uchuvchi otlar" deb e'tirof qilib o'tgan [3:117]. Temuriylar davri arab tarixchilarining fikrlariga ko'ra Amir Temurning shaxsan o'zi otlar borasida mukammal bilimga ega bo'lib, otlarni bir qarashdayoq zotdor yoki zotsiz ekanligini aniqlay olgan [15:508; 7:105]. Tuyaning go'shti, suti, yungi va terisini foydalanish mumkin bo'lganligi uchun

Temuriylar davlatida tuyachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilgan. Tuyaning yungidan chodirlarni to'qishda ham foydalanilgan [21:285]. Hatto, Amir Temur tuyadan harbiy yurishlarda ham foydalangan. Temur Hindistonda raqibning jangovar fillari bor qo'shinini yengishda ustiga yonayotgan shoh-shabballari bor tuyalarni qo'yib yuborgan. Bu holatni hech ko'rmagan fillar qattiq alangaga bardosh bera olmay orqaga qaytib Hind qo'shinini majag'lab tashlaydi [6:181]. Ot va tuyaning temuriylar davlatidagi ahamiyatini ko'rsatish uchun Xitoylik elchilarning temuriylar davlatining ikkinchi poytaxti Hirotga kelganlarida ularga sovg'a o'laroq ot va tuya berilganligini misol qilib ko'rsatish mumkin [18:151]. 1422-yil Xitoyga oralarida G'iyosiddin Naqqosh bo'lgan elchilik hayati Ulug'bek nomidan Xitoy hukumdoriga to'rtala oyog'i oq bo'lgan bir qora otni taqdim qiladi [9:132]. Ozarbijon otlari ham juda mashhur edi va bu otlarning shuhrati Xitoygacha yetgan bo'lib, Xitoy hukmdori Temuriylar elchilaridan Qoraqo'yinli Qora Yusufga elchi yuborib ot so'rash niyati borligini aytadi [19:29; 9:132]. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar davlatiga birinchi Xitoy elchisi ortiga qaytayotganda amir Sayyid Ahmad tarxon tomonidan podishohga bir dona zotdor arab oti sovg'a qilinadi. Bundan Xitoy hukmdori juda mamnun bo'lib, o'sha otni xitoy rassomlari tomonidan chizilgan rasmini sovg'a salomlarga qo'shib Sayyid Ahmad tarxonga yuboradi [1:126].

Hirotga katta bosh hayvonlardan tashqari kichikbosh hayvonlarni yetishtirish faoliyatlari ham yo'lga qo'yilgan. Xususan, temuriylardan Husayn Bayqaro hukmronligi davrida ko'chmanchi Turkman guruhlarining orasida bu faoliyat keng tarqalgan. O'tloqlarning ko'p ekanligi va suvning borligi Hirotga Chorvachilik faoliyatining keng tarqalishi sabablaridandir. Hirotga diqqatni tortadigan boshqa bir hayvonchilik faoliyati asalarichilikdir. Suvning ko'p bo'lishi sababli Harirud daryosi bo'yida baliqchilik faoliyati ham yo'lga qo'yilganligi manbalarda qayd qilingan [18:151].

Amir Temurning hayvonchilik rivojida Turon tarixi uchun qilgan yangiliklaridan biri, u Turon hududlariga Hindistondan fillarni olib kelganligidir. Bundan tashqari Temur Sherozga bitta, Hirotga beshta, Shirvonga bitta va Ozarbijonga bir fil yuborgan [21:305]. Samarqandga fillar olib kelinganda shahar xalqi fillarni ko'rgani chiqishgan. Sharofiddin Ali Yazdiy bergan ma'lumotga ko'ra o'sha kungacha Samarqand xalqi fil ko'rmagan edi [21:322]. Amir Temur Samarqandga to'qson beshta fil olib kelgan. Temur fillardan qurilish ishlarida tosh tashish uchun ham foydalangan [21:322].

Amir Temurning chorvachilikni rivojlantirishdagi eng katta yutuqlaridan biri, u amalga oshirgan harbiy yurishlarda juda katta miqdorda chorva hayvonlarini o'lja sifatida olgan. Qayerga harbiy yurish amalga oshirgan bo'lsa, o'sha yerning oti, tuyasi, sigiri, qo'yi, hachiri va boshqa hayvonlaridan o'lja olgan. Natijada uning davlatida turli hududlarning chorvalari to'planadi. Ehtimol ularni chatishtirish natijasida hayvonlarning yangi zotlari ham vujudga kelgan bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Temuriylar davrida mo'g'il bosqinidan so'ng ayanchli holga tushub qolgan mamlakat iqtisodiyoti asta-sekin qaddini roslab rivojlanib bordi. Yangi dehqonchilik maydonlari ochildi. Mo'g'illar tomonidan vayron etilgan to'g'on va kanallar qayta ochildi. Chorvachilikda juda ko'p hayvon turlari yetishtirildi. Xususan, qo'ychilik va yilqichilik juda yaxshi rivojlandi. Hayvonchilikda bizni hududlarda bo'lmagan hayvonlar ham Amir Temurning tashabbusi bilan olib kelinadi.

Temuriylar davrida dehqon va chorvadorlardan olinadigan soliqlar ham tartibga solindi. Bu ayniqsa Amir Temurning vorisi Shohrux mirzo davrida ancha tizimlashtirildi. Asta-sekin dehqon va chorvadorlardan mo'g'illar davrida olinadigan islom dinida bo'lmagan soliqlar ham olinishi to'xtatiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn/ jildi 2/ bo'lim1. Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 632.
2. Azamat Ziyov. O'zbek Davlatchiligi Tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 365.
3. Fazlulloh al-Umariy. Masolik al-absor fi mamolik al-amsor / jildi 3. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1971. – B. 414.
4. Hondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 1266.
5. H. To'rayev, B. Mirzaqulov. O'zbekiston tarixi (Buxoro tarixi) X jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B. 335.
6. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 513.
7. Ibn Tag'riberdi. Al-manhal as-sofi val mustavfi badal vafi/ jildi 4. – Qohira: Al-Misriyyat al-ammal lilkitab, 1986. – B. 461.
8. Ibn Batuta. Sayoxatnoma (Tuhfat an-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfor). – Toshkent: 2012. – B. 687.
9. Ismail Aka. Timur ve Devleti. – Ankara: Türk tarih kurumu, 2000. – S. 172.
10. İsmail Aka. XV. Yüzyılın İlk Yarısında Timurlular'da Ziraî ve Ticari Faaliyetler. İstanbul. 1981. S. 117.
11. Jaloliddin Muhammad al-Qoiniy. Nasohi Shohruhi. Viena Nationalbibliotek. Cod. A.F.112.
12. Maria Sabtelny. Timurids in Transition. – Boston: Leiden, 2007. P. 412.
13. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406). –Toshkent: 2010. – B. 264.
14. Sultaniyeli Johannes. Timur'un Sarayinda. – Istanbul: Kronik, 2020. – S. 110.
15. Taqiyuddin Maqriziy. Durar al-uqud al-farida fi tarojim al-ayon al-mufida/ jildi 1. – Bayrut: Dar al-G'arb al-islamiyya, 2002. – B. 590.
16. Tarix insituti. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – Toshkent: 1996. – B. 264.
17. Tuba Kalkan. Sultan Şahruh döneminde Herât ekonomisi. Ankara. 2015. S. 526.
18. Yusuf Ziya Söylemez. Timurlular Döneminde Herat. Doktora Tezi. – Malatya: 2023. – S. 335.
19. G'iyosiddin Naqqosh. Xitoy safari kundaligi. – Toshkent: Mashhur-Pres, 2017. B. 60.
20. Ca'ferî b. Muhammed el-Hüseynî. Târîh-i Kebîr. – Ankara: Türk tarih kurumu, 2011. – S. 314.
21. Şerefüddin Ali Yezdi. Zafernâme. – İstanbul: Selenge, 2013. – S. 512.